



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5 (3)



2026

ISSN: 2992-8982 <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.
3-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilkomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHGA QARATILGAN HAYOTIY TASHABBUSLAR.....	12
Muxiddin Kalonov	
O'ZBEKISTONDA NAQDSIZ TO'LOVLAR ULUSHINING OSHISHI VA PUL MASSASI NAZORATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	28
Pardayev G'ayrat Jabbor o'g'li	
BUXGALTERIYA HISOBINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI HISOB SIYOSATINING SHAKLLANISHIDA ASOS SIFATIDA.....	34
Abduvaxidov Farxod Tuychiyevich	
O'ZBEKISTON AUDITORLIK TASHKILOTLARIDA ICHKI SIFAT NAZORATI STANDARTLARINI RISKKA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	41
Bobonarova Kamola	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSION-INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	47
Azizova Habiba Arslonovna	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA RAQAMLI DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	56
Yusupova Dilbar Mirabidovna	
KARBOHOVYIE KREDITI V AGRAPNOM SEKTOPE KAK INSTRUMENT RAZVITIYA ZEL'ENNOY EKONOMIKI UZBEKISTANA.....	61
Abdullaeva Zaynab Ruslanovna	
BUXORO ZINDONI VA BOLO HOVUZ ANSAMBLI MISOLIDA TARIXIY OBIDALARNING BARQAROR TURISTIK SIG'IMI TAHLILI.....	66
Shodiyeva Moxichehra Shokir qizi, Qilichov Muhridin Husniddin o'g'li	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI.....	73
Ravshanjon Azimovich	
O'ZBEKISTONDA UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA BUXORO VILOYATI TAHLILI.....	80
Davidxodjayev Oybek Obidovich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION KREDITLASHLASHNING AMALDAGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI.....	85
Abdurashidova Mohidil Qodir qizi, Karimova A.	
IQTISODIYOTNI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA DXSH ASOSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	91
Toxirov Jaxongir Maxmudjon o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA UY-JOY QURILISHI VA IPOTEKA KREDITLASHNING O'ZARO BOG'LIQLIGI.....	96
Turopova Nigora Xolmurod qizi, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi	
ESG INTEGRATION AND GREEN FINANCIAL ANALYSIS: A NEW METHODOLOGICAL APPROACH TO CORPORATE FINANCIAL SUSTAINABILITY.....	100
Erkin Temirovich Shodiev	
THE CURRENT STATE OF DIGITALIZATION OF TOURISM IN UZBEKISTAN AND PROSPECTS FOR ITS DEVELOPMENT.....	105
Bekmurodov Bakhtiyor Farkhodovich	
TA'LIM MUASSASALARINI MOLIVALASHTIRISHDA OPTIMALLASHTIRISH ZARURATI VA YO'NALISHLARI.....	113
Umarov Avzaljon Yodgorali o'g'li	



АХОЛИ ИСТЕ’МОЛ МАДАНИЯТИ ВА МИЛЛИЙ IQTISODIY O’SISHGA TA’SIRI	118
Rustamov Sheroz Oblokulovich	
ISHLAB CHIQRARISH OMILLARINING IQTISODIY O’SISHGA TA’SIRI: KOBБ–DOUGLAS MODELII ASOSIDA EKONOMETRIK TAHLIL	123
Maxmudov Sobir Xudoyberdiyevich	
BARQAROR SHAHARSOZLIK RIVOJLANISHIGA ERISHISHDA QATTIQ CHIQINDILARNI KOMPLEKS BOSHQARISH	129
Firas Halawani, Feruza Insavaliyeva	
СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РЕАЛИЗАЦИИ НА НАЦИОНАЛЬНОМ УРОВНЕ КЛЮЧЕВЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ СОГЛАШЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ТРАНСГРАНИЧНЫМ ЗАГРЯЗНЕНИЕМ, В УЗБЕКИСТАНЕ И СОСЕДНИХ СТРАНАХ.....	139
Шафикова Луиза, Ойбек Камилов	
ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА УЗБЕКИСТАНА: ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО УРОВНЯ И ПОТЕНЦИАЛА РОСТА	150
Омонтурдиева Диёра	
YER VA SUV RESURSLARINI INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARISHDA DRONLARDAN FOYDALANISH.....	155
Matkarimov Mansur	
YASHIL INVESTITSIYALAR BOZORI MEKANIZMINING DASTAKLARI	161
Ziyodullayeva Gulasal Akmal qizi	
СТРАТЕГИЯ ПРИВЛЕЧЕНИЯ И УДЕРЖАНИЯ ПЕРСОНАЛА ПОСРЕДСТВОМ HR-БРЕНДИНГА: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИКА РЕАЛИЗАЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	167
Дониерова Фотимабону Алишер кизи	
KAMBAG’ALLIKNI MONETAR VA KO’P O’LCHOVLI VAHOLASH METODOLOGIYASI ASOSIDA IQTISODIY O’SISH STRATEGIYALARINI KONSEPTUAL TAKOMILLASHTIRISH	173
Sotiboldiyev Asadbek Hasan o’g’li	
QURILISH SANOATIDA RESURS TEJAMKOR ISHLAB CHIQRARISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO’NALISHLARI.....	179
Utbasarov Doniyorjon Baxtiyorovich	
KICHIK BIZNESDA XIZMATLAR SOHASINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI.....	188
Raximov Zafar Komilovich, Mamatazimov Jaloliddin Sherzod o’g’li	
MANAGING DIGITAL TRANSFORMATION IN PRIMARY HEALTHCARE: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW	192
Ashurova Sitora Xusnitdin qizi	
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПРАВОВЫЕ ПРОБЕЛЫ В УПРАВЛЕНИИ ТРАНСГРАНИЧНЫМ ЗАГРЯЗНЕНИЕМ ВОД В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	197
Тиллахуджаев Аббосхон, Дилфуза Шакирова, Мухамедалиева Сайёра, Ойбек Камилов	
JAHON ME’MORIY MEROSIDAN TURIZMDA FOYDALANISH: DOLZARB MUAMMOLAR, ZAMONAVIY YECHIMLAR VA ISTIQBOLLI TAKLIFLAR.....	208
Qilichov Muhriddin Husniddin o’g’li	
IMPROVING SALES PROMOTION STRATEGIES FOR UZBEK EXPORTERS IN DEVELOPING FOREIGN MARKETS.....	217
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Rustamova Madina Baxrom qizi	
ENVIRONMENTAL DEGRADATION AND CARBON EMISSION: INTERCONNECTED LINKS WITH ECONOMIC GROWTH IN POST-SOVIET.....	222
Rajabova Malika Nuriddin qizi	
NATIJAGA YO’NALTIRILGAN BUDJETLASHTIRISHGA OID ILMIY QARASHLAR VA YONDASHUVLAR	230
Qosimova Gulyar Axmatovna	



ТРАНСГРАНИЧНЫЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ РЕГИОНАЛЬНОГО ТУРИЗМА НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН.....	236
Наурызбаев Алиакбар Рустамович	
ВЗАИМОСВЯЗЬ УРОВНЯ ЖИЗНИ И ИНДЕКСА ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ	239
Усманова Зумрад Исламовна	
KIMYO SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORALARI	242
Muxammadiyeva Munira Zaynabuddinovna	
QISHLOQ UY-JOY QURILISHIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARINING AHAMIYATI.....	248
Xannarov Komiljon Karimovich	
TIBBIYOT MUASSASALARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH VA VAZIFALAR TAQSIMOTI TAMOYILLARI.....	253
Saidov Suhrob Shodmonovich	
HUDUDIIY IQTISODIY INTEGRATSIYA RIVOJLANISHINING XORIJIY TAJRIBASI VA MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI UCHUN AHAMIYATI.....	257
Akbarova Kamola Akmaljonovna	
MOLIYAVIY TAHLIL AXBOROT BAZASINING KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRI	263
Karimov Eminjon Gapardjonovich	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI	270
Shermatov Axror Abdixakimovich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA ENERGIYA SAQLASH TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	275
Ergash Bobobekov	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARIDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	281
Yo'ldoshev Jamshid Nu'monovich	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	285
Qurbonova Rahima Jamshedovna	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI ISH O'RINLARINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	290
Ibroximova Nafosat Abdusattor qizi	



YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI ISH O'RINLARINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Ibroximova Nafosat Abdusattor qizi

Samarqand davlat universiteti dotsenti, PhD

Email: ibroximovanafosat92@gmail.com

Orcid: <https://orcid.org/0009-0000-1499-1467>

Annotatsiya. Mazkur maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida yangi ish o'rinlarini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda yashil iqtisodiyotning mehnat bozori rivojlanishiga ta'siri, ekologik innovatsiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, yashil investitsiyalar hamda ekologik xizmatlar asosida bandlikni oshirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, yashil iqtisodiyot transformatsiyasi jarayonida "green jobs" tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, inson kapitalini takomillashtirish va ekologik kompetensiyalarni shakllantirish masalalari yoritilgan. Maqolada O'zbekistonda yashil iqtisodiyot asosida yangi ish o'rinlarini yaratish istiqbollari baholanib, mehnat bozori samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, yashil bandlik, green jobs, mehnat bozori, yangi ish o'rinlari, barqaror rivojlanish, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik innovatsiyalar, yashil investitsiyalar, inson kapitali, ekologik xizmatlar, yashil texnologiyalar, bandlik siyosati.

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of creating new jobs in a green economy. The study analyzes the impact of the green economy on the development of the labor market, the possibilities of increasing employment based on ecological innovations, renewable energy sources, green investments and ecological services. It also covers the priority areas of developing the "green jobs" system in the process of green economy transformation, the issues of improving human capital and forming ecological competencies. The article assesses the prospects for creating new jobs in Uzbekistan based on a green economy and develops scientific and practical proposals and recommendations for increasing the efficiency of the labor market.

Key words: green economy, green employment, green jobs, labor market, new jobs, sustainable development, renewable energy, ecological innovations, green investments, human capital, ecological services, green technologies, employment policy.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты создания новых рабочих мест в зеленой экономике. Анализируется влияние зеленой экономики на развитие рынка труда, возможности увеличения занятости на основе экологических инноваций, возобновляемых источников энергии, зеленых инвестиций и экологических услуг. Также рассматриваются приоритетные направления развития системы «зеленых рабочих мест» в процессе трансформации зеленой экономики, вопросы повышения человеческого капитала и формирования экологических компетенций. В статье оцениваются перспективы создания новых рабочих мест в Узбекистане на основе зеленой экономики и разрабатываются научно-практические предложения и рекомендации по повышению эффективности рынка труда.

Ключевые слова: зеленая экономика, зеленая занятость, зеленые рабочие места, рынок труда, новые рабочие места, устойчивое развитие, возобновляемая энергия, экологические инновации, зеленые инвестиции, человеческий капитал, экологические услуги, зеленые технологии, политика занятости.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida ekologik barqarorlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va iqtisodiy o'sishning atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Global iqlim o'zgarishi, energiya resurslariga bo'lgan talabning ortishi, sanoatlashuv va urbanizatsiya jarayonlarining



jadallashuvi mamlakatlar oldiga iqtisodiy taraqqiyotning yangi, ekologik jihatdan barqaror modeliga o'tish vazifasini qo'ymoqda. Shu nuqtayi nazardan, yashil iqtisodiyot konsepsiyasi nafaqat ekologik muammolarni yumshatish, balki yangi ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va yangi ish o'rinlarini shakllantirishning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda.

Yashil iqtisodiyot sharoitida bandlik masalasi alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Chunki iqtisodiyotning ekologik transformatsiyasi an'anaviy mehnat bozorida yangi kasblar, malaka talablari va bandlik shakllarining yuzaga kelishiga olib keladi. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya samaradorligi, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik transport, yashil qurilish, agroekologiya, ekoturizm va ekologik xizmatlar kabi yo'nalishlar yangi ish o'rinlarini yaratishning istiqbolli manbalariga aylanmoqda. Bu esa mehnat resurslaridan samarali foydalanish, aholining, ayniqsa yoshlar va ayollarning bandligini oshirish, hududiy mehnat bozorida muvozanatni ta'minlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

O'zbekiston sharoitida ham yashil iqtisodiyotga o'tish ustuvor strategik yo'nalishlardan biri sifatida belgilanmoqda. Mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ekologik toza ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonlar iqtisodiyot tarmoqlarida yangi ish o'rinlarini tashkil etish, "yashil kasblar" tizimini shakllantirish hamda mehnat bozorida ekologik kompetensiyalarga ega kadrlar salohiyatini oshirish zaruratini kuchaytirmoqda.

Shu bilan birga, yashil iqtisodiyot sharoitida yangi ish o'rinlarini shakllantirish jarayoni bir qator tashkiliy-iqtisodiy muammolar bilan ham bog'liq. Jumladan, yashil kasblar bo'yicha aniq tasnif va malaka talablarining yetarli darajada shakllanmagani, ekologik innovatsiyalarni joriy etish xarajatlarining yuqoriligi, hududlarda yashil tadbirkorlik infratuzilmasining sust rivojlangani, mehnat resurslarining zamonaviy ekologik va raqamli ko'nikmalarga moslashuvi bilan bog'liq muammolar mavjud. Bu esa yashil iqtisodiyot asosida bandlikni oshirish mexanizmlarini ilmiy jihatdan chuqur tadqiq etishni taqozo etadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida yangi ish o'rinlarini shakllantirish nafaqat ekologik xavfsizlikni ta'minlash, balki iqtisodiy o'sishni diversifikatsiya qilish, aholining daromad manbalarini kengaytirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, yashil investitsiyalarni jalb etish, ekologik xizmatlar bozorini rivojlantirish va hududiy bandlik dasturlarini takomillashtirish bugungi kunning muhim ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyot va yangi ish o'rinlarini shakllantirish masalasi zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik, mehnat bozori transformatsiyasi va innovatsion bandlik konsepsiyalari bilan uzviy bog'liq holda tadqiq etiladi. Mazkur yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot faqat atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan ekologik yondashuv emas, balki iqtisodiy o'sish, resurslardan samarali foydalanish, yangi tarmoqlarni rivojlantirish va aholi bandligini oshirishga xizmat qiluvchi kompleks iqtisodiy model hisoblanadi. Xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari ko'proq barqaror rivojlanish konsepsiyasi bilan bog'liq holda yoritilgan. Xususan, N. Stern iqlim o'zgarishi iqtisodiy o'sish, investitsiya siyosati va bandlikka bevosita ta'sir ko'rsatishini asoslab, ekologik xavflarni kamaytirishga yo'naltirilgan investitsiyalar uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashini ta'kidlaydi. Uning yondashuvida yashil iqtisodiyot yangi texnologiyalar, energiya samaradorligi va qayta tiklanuvchi energiya sohalarida yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatiga ega iqtisodiy tizim sifatida talqin qilinadi. J. Stiglitz, A. Sen va J.-P. Fitoussi tadqiqotlarida iqtisodiy taraqqiyotni faqat yalpi ichki mahsulot o'sishi bilan emas, balki aholining turmush sifati, ekologik barqarorlik va ijtimoiy farovonlik ko'rsatkichlari bilan baholash zarurligi asoslab berilgan. Ushbu yondashuv yashil iqtisodiyot sharoitida bandlik masalasini kengroq talqin qilishga imkon beradi. Ya'ni yangi ish o'rinlari sonining ortishi bilan bir qatorda ularning ekologik xavfsizligi, ijtimoiy himoyalanganligi, daromadlilik darajasi va inson kapitalini rivojlantirishdagi roli ham muhim mezon sifatida qaraladi. M. Porter va C. van der Linde tomonidan ilgari surilgan "innovatsion kompensatsiya" g'oyasiga ko'ra, ekologik talablarning kuchayishi korxonalar uchun qo'shimcha xarajat sifatida emas, balki innovatsiyalarni rag'batlantiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur yondashuvga ko'ra, ekologik standartlar korxonalarni energiya tejankor texnologiyalar, chiqindsiz ishlab chiqarish va resurslardan samarali foydalanish usullarini joriy etishga undaydi. Natijada ishlab chiqarish samaradorligi oshadi, yangi kasblar va ish o'rinlari yuzaga keladi. Xalqaro mehnat tashkiloti tadqiqotlarida "green jobs" tushunchasi atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, energiya samaradorligini oshirish va ekologik xavflarni kamaytirishga xizmat qiluvchi munosib ish o'rinlari sifatida izohlanadi. Ushbu yondashuvda yashil ish o'rinlari oddiy bandlik shakli emas, balki ekologik va ijtimoiy mezonlarni birlashtiruvchi mehnat faoliyati sifatida talqin qilinadi. Demak, yashil ish o'rinlari nafaqat iqtisodiy daromad manbai, balki barqaror taraqqiyotga xizmat qiluvchi institutsional mexanizm sifatida qaraladi.



UNEP tadqiqotlarida yashil iqtisodiyot kam uglerodli rivojlanish, resurslardan samarali foydalanish va ijtimoiy inkluzivlikka asoslangan iqtisodiy model sifatida baholanadi. Ushbu yondashuvda yashil investitsiyalar, ekologik infratuzilma, qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik transport va yashil qurilish sohalari yangi ish o'rinlarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari sifatida ko'rsatiladi. OECD tadqiqotlarida esa yashil o'sish konsepsiyasi iqtisodiy raqobatbardoshlik, innovatsion rivojlanish va bandlik siyosati bilan bog'liq holda o'rganiladi. Ushbu qarashga ko'ra, yashil iqtisodiyotga o'tish mehnat bozorida tarkibiy o'zgarishlarni yuzaga keltiradi: ayrim an'anaviy kasblarga talab kamayadi, biroq ekologik texnologiyalar, muhandislik, energiya menejmenti, ekologik audit, qayta ishlash va yashil xizmatlar sohasida yangi kasblarga ehtiyoj ortadi. Mahalliy iqtisodchi olimlar tadqiqotlarida yashil iqtisodiyot masalasi ko'proq barqaror rivojlanish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, innovatsion iqtisodiyot va bandlikni ta'minlash bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. O'zbekiston iqtisodiyoti sharoitida yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni energetika, qishloq xo'jaligi, sanoat, transport, qurilish va xizmat ko'rsatish sohaslarining modernizatsiyasi bilan bevosita bog'liqdir. Shu bois mahalliy tadqiqotlarda yashil iqtisodiyotning hududiy bandlikni oshirish, yoshlar va ayollar uchun yangi ish o'rinlarini yaratish, ekologik tadbirkorlikni rivojlantirishdagi ahamiyati alohida ta'kidlanadi. O'zbekistonlik olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda inson kapitali va mehnat resurslarini rivojlantirish yashil iqtisodiyotning muhim omillaridan biri sifatida baholanadi. Chunki yashil iqtisodiyotga o'tish yangi texnologiyalarni o'zlashtira oladigan, ekologik bilim va raqamli ko'nikmalarga ega bo'lgan kadrlarni talab qiladi. Bu esa ta'lim tizimi, kasb-hunar tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimlarini yashil iqtisodiyot talablariga moslashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot sharoitida yangi ish o'rinlarini shakllantirish quyidagi ilmiy yondashuvlar asosida tadqiq etiladi: birinchidan, ekologik modernizatsiya yondashuvi, bunda texnologik yangilanish va ekologik standartlar bandlikka ta'sir etuvchi omil sifatida qaraladi; ikkinchidan, barqaror rivojlanish yondashuvi, bunda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik manfaatlar uyg'unligi asosiy mezon hisoblanadi; uchinchidan, inson kapitali yondashuvi, bunda yashil kasblar uchun zarur bilim, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishga e'tibor qaratiladi; to'rtinchidan, institutsional yondashuv, bunda davlat siyosati, qonunchilik, investitsion rag'batlar va mehnat bozori institutlari muhim omil sifatida baholanadi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlarda yashil iqtisodiyot va bandlik o'rtasidagi bog'liqlik keng yoritilgan bo'lsa-da, O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyot asosida yangi ish o'rinlarini shakllantirishning hududiy, tarmoq va kasbiy jihatlari yetarlicha chuqur tadqiq etilmagan. Ayniqsa, yashil kasblar tasnifini ishlab chiqish, yashil kompetensiyalarni shakllantirish, ekologik tadbirkorlikni bandlik siyosati bilan integratsiyalash va hududiy mehnat bozorida yashil ish o'rinlarini prognozlash masalalari ilmiy izlanishlarni davom ettirishni talab etadi. Shu jihatdan mazkur maqola yashil iqtisodiyot sharoitida yangi ish o'rinlarini shakllantirish istiqbollari ilmiy asoslashga qaratilganligi bilan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda yashil iqtisodiyot sharoitida yangi ish o'rinlarini shakllantirish jarayonlarini o'rganishda tizimli yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot davomida iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy tahlil, guruhlash, induksiya va deduksiya usullari qo'llanildi. Shuningdek, yashil iqtisodiyotning bandlikka ta'sirini baholashda ilmiy abstraksiya va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning axborot bazasini International Labour Organization, United Nations Environment Programme, Organisation for Economic Co-operation and Development hamda O'zbekiston Respublikasi statistika organlari ma'lumotlari tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida yashil iqtisodiyot va "green jobs" konsepsiyasiga oid ilmiy adabiyotlar, xalqaro tajribalar hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonlari mehnat bozori tarkibida sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ekologik xavfsizlikni ta'minlash, energiya samaradorligini oshirish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan iqtisodiy siyosat yangi turdagi kasblar va ish o'rinlarini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik qurilish, ekoturizm va yashil logistika kabi yo'nalishlarda bandlik darajasining ortishi kuzatilmoqda.


Yashil iqtisodiyot sharoitida yangi ish o'rinlari shakllanishining asosiy xususiyati shundaki, ular ekologik va iqtisodiy manfaatlarining uyg'unligini ta'minlaydi. Mazkur jarayon iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishiga xizmat qilishi bilan bir qatorda mehnat bozori tarkibini modernizatsiya qilish imkonini ham yaratadi. Shu sababli ko'plab mamlakatlarda yashil iqtisodiyot mehnat resurslaridan samarali foydalanishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.



1-jadval. Yashil iqtisodiyot tarmoqlarida yangi ish o'rinlarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari va ularning bandlikka ta'siri

Yashil iqtisodiyot tarmoqlari	Shakllanadigan yangi ish o'rinlari	Zarur kompetensiyalar	Bandlikka ta'sir darajasi	Iqtisodiy va ijtimoiy samarasi
Quyosh energetikasi	Quyosh paneli montajchilari, texnik operatorlar, energetik muhandislar	Texnik va raqamli ko'nikmalar	Yuqori	Energiya samaradorligi va yuqori daromadli bandlikni ta'minlaydi
Shamol energetikasi	Muhandislar, servis texniklari, loyiha mutaxassislari	Muhandislik va texnologik bilimlar	Yuqori	Hududiy sanoat infratuzilmasi rivojlanadi
Chiqindilarni qayta ishlash	Saralash operatorlari, ekolog-mutaxassislar	Ekologik boshqaruv ko'nikmalari	O'rta	Ekologik xavfsizlik va sanitariya holati yaxshilanadi
Yashil qurilish	Energiya auditorlari, "aqlli uy" texnologlari	Energiya menejmenti va dizayn	Yuqori	Qurilish samaradorligi va resurs tejamkorligi oshadi
Ekologik transport	Elektrotransport texniklari, logistika operatorlari	Raqamli va texnik kompetensiyalar	Yuqori	Atmosfera ifloslanishi kamayadi
Ekoturizm	Ekogidlar, servis xodimlari	Turizm va ekologik xizmat ko'rsatish malakalari	O'rta	Hududiy xizmatlar bozori rivojlanadi
Agroekologik xizmatlar	Agrotexnologlar, ekolog-agronomlar	Ekologik dehqonchilik bilimlari	O'rta	Qishloq hududlarida bandlik kengayadi
Ekologik konsalting xizmatlari	Ekolog-auditorlar, ekspertlar	Tahliliy va boshqaruv kompetensiyalari	Yuqori	Korxonalarining ekologik samaradorligi oshadi

1-jadval ma'lumotlari yashil iqtisodiyotning mehnat bozori rivojlanishidagi strategik ahamiyatini yaqqol ifodalaydi. Tahlillarga ko'ra, qayta tiklanuvchi energiya bilan bog'liq tarmoqlar, xususan quyosh va shamol energetikasi eng yuqori bandlik salohiyatiga ega yo'nalishlar hisoblanadi. Mazkur sohalarda texnologik infratuzilmaning kengayishi natijasida muhandislik, texnik xizmat ko'rsatish, energetika menejmenti va raqamli monitoring bilan bog'liq yangi kasblar shakllanmoqda. Bu esa yuqori malakali mehnat resurslariga bo'lgan talabning ortishiga sabab bo'lmoqda. Shuningdek, jadvalda yashil qurilish va ekologik transport yo'nalishlarining ham yuqori bandlik ta'siriga ega ekanligi aks etgan. Chunki energiya tejamkor binolarni qurish, "aqlli texnologiyalar"ni joriy etish hamda elektrotransport infratuzilmasini rivojlantirish iqtisodiyotda innovatsion faoliyatning kengayishiga olib keladi. Mazkur yo'nalishlarda energiya auditorlari, ekologik loyiha menejerlari va texnik mutaxassislar kabi zamonaviy kasblar shakllanmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, chiqindilarni qayta ishlash va agroekologik xizmatlar bandlikka o'rta darajada ta'sir ko'rsatsa-da, ular hududiy mehnat bozorida muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ushbu yo'nalishlar qishloq hududlarida qo'shimcha ish o'rinlari yaratish, kambag'allikni kamaytirish va ekologik madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, chiqindilarni qayta ishlash tizimining rivojlanishi ekologik xavfsizlikni ta'minlash bilan bir qatorda "yashil ishlab chiqarish" zanjirining shakllanishiga ham imkon yaratadi. Ekoturizm va ekologik konsalting xizmatlari esa xizmat ko'rsatish sohasida yashil iqtisodiyotning yangi segmentlari sifatida rivojlanmoqda. Xususan, ekologik turizm hududiy xizmatlar bozori, mehmonxona biznesi va transport xizmatlari rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ekologik konsalting xizmatlari esa korxonalarda ekologik audit, energiya samaradorligi va resurslardan oqilona foydalanish tizimlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.



1-rasm. Yashil iqtisodiyot sharoitida yangi ish o'rinlarini shakllantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi

Mazkur 1-rasm yashil iqtisodiyot sharoitida yangi ish o'rinlarini shakllantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini kompleks tarzda ifodalaydi. Rasmda yashil iqtisodiyot asosida bandlikni rivojlantirishga ta'sir etuvchi tashqi omillar, institutsional ta'minot, asosiy mexanizm elementlari, qo'llab-quvvatlovchi omillar hamda natijaviy ko'rsatkichlar o'zaro uzviy bog'liqlikda tasvirlangan. Rasmning yuqori qismida yashil iqtisodiyot rivojlanishiga ta'sir etuvchi tashqi omillar aks ettirilgan bo'lib, ular global iqlim o'zgarishi, resurslar tanqisligi, texnologik taraqqiyot, raqamlashtirish jarayonlari hamda xalqaro ekologik standartlardan iboratdir. Mazkur omillar iqtisodiyot tarmoqlarida ekologik transformatsiyani jadallashtirib, yangi iqtisodiy faoliyat yo'nalishlari va zamonaviy kasblarning shakllanishiga zamin yaratadi. Ayniqsa, texnologik taraqqiyot va raqamlashtirish yashil iqtisodiyotning innovatsion modelini shakllantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Rasmning ikkinchi qismida institutsional ta'minot tizimi yoritilgan bo'lib, unda davlat siyosati, normativ-huquqiy baza, moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlari, institutsional infratuzilma va xalqaro investitsiyalar muhim tarkibiy elementlar sifatida ko'rsatilgan. Ushbu omillar yashil iqtisodiyotning iqtisodiy asoslarini shakllantirish bilan bir qatorda yangi ish o'rinlarini yaratish uchun zarur investitsion muhitni ta'minlaydi. Xususan, soliq imtiyozlari, subsidiyalar, yashil kreditlar va investitsiyalar ekologik innovatsiyalarni keng joriy etishga xizmat qiladi. Rasmning markaziy qismida yangi ish o'rinlarini shakllantirishning asosiy mexanizmi bosqichma-bosqich aks ettirilgan. Unga ko'ra, dastlab yashil investitsiyalar va moliyaviy resurslar jalb etiladi, so'ng ekologik innovatsiyalar hamda resurs tejankor texnologiyalar joriy qilinadi. Keyingi bosqichda energetika, sanoat, transport, qurilish, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish kabi yashil tarmoqlar rivojlanadi. Mazkur jarayon ishlab chiqarish va xizmatlar hajmining kengayishiga olib keladi hamda natijada yangi ish o'rinlari va bandlik shakllanadi. Rasmda alohida e'tibor qo'llab-quvvatlovchi omillarga qaratilgan. Jumladan, inson kapitalini rivojlantirish, ilm-fan va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, hududiy salohiyat va ekologik madaniyatni oshirish yashil iqtisodiyotning samaradorligini belgilovchi muhim omillar sifatida tasvirlangan. Bu esa yashil iqtisodiyot sharoitida mehnat bozori samaradorligini oshirish uchun nafaqat investitsiyalar, balki malakali kadrlar va innovatsion bilimlar ham zarurligini ko'rsatadi. Rasmning natijaviy qismida yashil iqtisodiyotning iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, innovatsion va hududiy samaralari ifodalangan. Xususan, iqtisodiy natijalar sifatida YaIMning o'sishi, investitsion samaradorlik va raqobatbardoshlikning ortishi aks ettirilgan. Ijtimoiy natijalarda bandlik darajasining oshishi, aholi daromadlarining ko'payishi va turmush sifatining yaxshilanishi ko'rsatilgan. Ekologik natijalar esa atmosfera ifloslanishining kamayishi, resurslardan samarali foydalanish va ekologik xavfsizlikning mustahkamlanishi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, rasm yashil iqtisodiyotning innovatsion va hududiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishini ifodalaydi. Xususan, yangi texnologiyalar va raqamli yechimlarning joriy etilishi innovatsion faoliyatni kuchaytiradi, hududiy klasterlarning



rivojlanishi esa qishloq joylarda bandlikni oshirish va hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

2-jadval. Yashil iqtisodiyot sharoitida yangi ish o'rinlarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va ularning iqtisodiy samaradorligi

Ustuvor yo'nalishlar	Amalga oshirish mexanizmlari	Shakllanadigan ish o'rinlari	Kutilayotgan iqtisodiy natijalar	Ijtimoiy-ekologik samaradorlik
Qayta tiklanuvchi energiyani rivojlantirish	Quyosh va shamol elektr stansiyalarini tashkil etish	Muhandislar, texnik operatorlar, montajchilar	Energiya ishlab chiqarish hajmi oshadi	Atmosfera ifloslanishi kamayadi
Yashil qurilishni kengaytirish	Energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish	Energiya auditorlari, loyiha mutaxassislari	Qurilish xarajatlari qisqaradi	Resurslardan samarali foydalaniladi
Chiqindilarni qayta ishlash tizimini rivojlantirish	Qayta ishlash korxonalarini tashkil etish	Saralash operatorlari, ekolog mutaxassislar	Ikkilamchi resurslar bozori rivojlanadi	Sanitariya va ekologik xavfsizlik yaxshilanadi
Ekologik transport infratuzilmasini rivojlantirish	Elektrotransport va yashil logistika tizimini joriy etish	Transport texniklari, logistika operatorlari	Transport samaradorligi oshadi	Karbon chiqindilari qisqaradi
Ekologik xizmatlar bozorini kengaytirish	Ekologik audit va konsalting xizmatlarini rivojlantirish	Ekolog-auditorlar, ekspertlar	Xizmatlar bozori diversifikatsiyalanadi	Ekologik madaniyat rivojlanadi
Agroekologik faoliyatni rivojlantirish	Ekologik dehqonchilik va suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish	Agrotexnologlar, ekolog-agronomlar	Qishloq xo'jaligi samaradorligi oshadi	Tuproq va suv resurslari muhofaza qilinadi
Ekoturizmni rivojlantirish	Hududiy ekologik turizm infratuzilmasini kengaytirish	Ekogidlar, servis xodimlari	Turizm daromadlari ko'payadi	Hududiy bandlik oshadi

2-jadval ma'lumotlari yashil iqtisodiyot sharoitida yangi ish o'rinlarini shakllantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlari iqtisodiyotning turli tarmoqlari bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Tahlillarga ko'ra, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish eng yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki quyosh va shamol energetikasi obyektlarini tashkil etish nafaqat energiya ishlab chiqarish hajmini oshiradi, balki texnik va muhandislik yo'nalishlarida yuqori malakali yangi ish o'rinlarini yaratadi. Shu bilan birga, mazkur yo'nalish atmosferaga chiqariladigan zararli chiqindilar hajmini kamaytirishga xizmat qiladi. Jadvalda yashil qurilish yo'nalishining ham muhim iqtisodiy va ekologik samaradorlikka ega ekanligi aks ettirilgan. Energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish bino va inshootlardan foydalanish xarajatlarini kamaytiradi, energiya resurslarini tejaydi hamda ekologik xavfsizlikni oshiradi. Mazkur yo'nalishda energiya auditorlari, loyiha menejerlari va "aqlli texnologiyalar" mutaxassislariga bo'lgan talabning ortishi kuzatiladi. Tahlillar chiqindilarni qayta ishlash tizimini rivojlantirishning ham muhim bandlik salohiyatiga ega ekanligini ko'rsatadi. Chiqindilarni qayta ishlash korxonalarining tashkil etilishi ikkilamchi resurslar bozorining rivojlanishiga xizmat qiladi va ekologik xavfsizlikni mustahkamlaydi. Ayniqsa, ushbu yo'nalish aholi zich joylashgan hududlarda sanitariya holatini yaxshilash va qo'shimcha ish o'rinlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ekologik transport infratuzilmasini rivojlantirish orqali transport-logistika tizimining samaradorligini oshirish mumkin. Elektrotransport vositalaridan foydalanish karbon chiqindilarini kamaytirib, ekologik barqarorlikni ta'minlaydi. Bu esa transport texniklari, logistika operatorlari va servis xodimlari kabi yangi kasblarning shakllanishiga olib keladi. Jadvalda ekologik xizmatlar bozori va agroekologik faoliyatning ham yashil iqtisodiyotdagi muhim yo'nalishlardan biri sifatida aks ettirilishi bejiz emas. Chunki ekologik audit, konsalting va monitoring xizmatlarining rivojlanishi korxonalarining ekologik samaradorligini oshiradi. Agroekologik texnologiyalar esa qishloq xo'jaligida suv va yer resurslaridan oqilona foydalanishga imkon yaratadi hamda qishloq hududlarida bandlikni oshirishga xizmat qiladi. Ekoturizmni rivojlantirish esa xizmat ko'rsatish sohasida hududiy iqtisodiy faollikni kuchaytiruvchi omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tabiiy va ekologik salohiyatga ega hududlarda ekoturizm xizmatlarining kengayishi mahalliy aholi uchun qo'shimcha daromad manbalarini yaratadi va hududiy bandlik darajasini oshiradi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Yashil iqtisodiyot sharoitida yangi ish o'rinlarini shakllantirish iqtisodiy o'sish, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qayta tiklanuvchi energiya, yashil qurilish, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik transport, agroekologik xizmatlar va ekoturizm tarmoqlari yangi bandlik imkoniyatlarini yaratishda yuqori salohiyatga ega.

Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida faqat yangi ish o'rinlari sonini ko'paytirish emas, balki ularning sifatini oshirish, ekologik kompetensiyalarga ega kadrlar tayyorlash va mehnat bozorini zamonaviy texnologiyalar talablariga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yashil investitsiyalar, ekologik innovatsiyalar va institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining uyg'unligi yangi ish o'rinlarini barqaror shakllantirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyot asosida bandlikni oshirish uchun yashil kasblar tasnifini ishlab chiqish, qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini kengaytirish, ekologik tadbirkorlikni rag'batlantirish hamda hududiy yashil bandlik dasturlarini shakllantirish zarur. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni keskin oshirish maqsadi belgilangan bo'lib, bu kelgusida yashil ish o'rinlarini kengaytirish uchun muhim institutsional asos yaratadi.

Umuman olganda, yashil iqtisodiyot sharoitida yangi ish o'rinlarini shakllantirish iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi, aholining daromad manbalarini kengaytirish, ekologik xavfsizlikni mustahkamlash va barqaror taraqqiyotga erishishning ustuvor omili sifatida namoyan bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son Qarori. 2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi qarori. 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash dasturi.
4. International Labour Organization. Green Jobs: Towards Decent Work in a Sustainable, Low-Carbon World. Geneva: ILO/UNEP, 2008.
5. United Nations Environment Programme. Green Economy Report. UNEP, 2011.
6. OECD. Towards Green Growth. Paris: OECD Publishing, 2011.
7. Stern N. The Economics of Climate Change: The Stern Review. Cambridge: Cambridge University Press, 2007.
8. Porter M.E., van der Linde C. Toward a New Conception of the Environment-Competitiveness Relationship. Journal of Economic Perspectives, 1995.
9. Stiglitz J.E., Sen A., Fitoussi J.-P. Report by the Commission on the Measurement of Economic Performance and Social Progress. Paris, 2009.
10. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X. va boshqalar. Yashil iqtisodiyot. Toshkent: Universitet, 2020.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>